

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/08.05.2024.Qx.42.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLER EKSPERIMENTAL
BIOLOGIYASI INSTITUTI**

SAMANOV SHERMUXAMMAD ABDURASULOVICH

**G‘o‘zaning introgressiv tizmalarini populyatsion tahlili asosida navlar
yaratish**

06.01.05- Seleksiya va urug‘chilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по
сельскохозяйственным наукам
Contents of dissertation abstract of doctor (DSc) on agricultural sciences

Samanov Shermuxammad Abdurasulovich G‘o‘zaning introgressiv tizmalarini populyatsion tahlili asosida navlar yaratish.....	3
Саманов Шермухаммад Абдурасулович Создание сортов на основе популяционного анализа интрогрессивных линий хлопчатника.....	30
Samanov Shermukhammad Abdurasulovich Variety development based on population analysis of introgressive cotton lines.....	57
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	61

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/08.05.2024.Qx.42.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLER EKSPERIMENTAL
BIOLOGIYASI INSTITUTI**

SAMANOV SHERMUXAMMAD ABDURASULOVICH

**G‘O‘ZANING INTROGRESSIV TIZMALARINI POPULYATSION
TAHLILI ASOSIDA NAVLAR YARATISH**

06.01.05- Seleksiya va urug‘chilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/Qx284 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.psuyaiti.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Amanov Baxtiyar Xushbakovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qurbonov Abrorjon Yorkinovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Aliqulov Safar Mengliqulovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Juraev Sirojiddin Turdiqulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.05/08.05.2024.Qx.42.02-raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «8» aprel soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111218, Toshkent, Universitet ko'chasi 1-uy, Tel.: (+99871) 150-62-78, faks (+99871) 150-61-37, E-mail: paxtauz@mail.ru. Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Bosh binosi, 3-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasida tanishish mumkin (1822 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111218, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti kutubxonasi. Tel: (+99897) 746-47-60.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «25» may kuni tarqatildi.
(2025 yil « » dagi raqamli reyestr bayonnomasi.)



Sh.E. Namazov

Sh.E. Namazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rasi, q.x.f.d., akademik

M.B. Xalikova

M.B. Xalikova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.d., professor

S.A. Raxmonqulov

S-A. Raxmonqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, b.f.d., professor, O'zRQXA muxbir a'zosi

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Paxta dunyo miqiyosida eng ko'p ishlatiladigan tabiiy tola bo'lib to'qimachilik sanoatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jahonda 2022-2023 yillarda jami 118,3 mln tonna paxta xom ashyosi yetishtirilgan. Shundan Xitoy (6,684 mln tonna), Hindiston (5,661 mln tonna) va AQSH (3,150 mln tonna) hissasiga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarni Braziliya (3,062 mln. tonna), Avstraliya (1,263 mln. tonna), Turkiya (1,067 mln tonna), Pokiston (849 mln tonna) va O'zbekiston (740 mln tonna) egallaydi.¹ Mamlakatimizda 2023 yilda jami 1 mln 32 ming gektar maydonga g'o'za ekilib, 3,5 mln tonna paxta xomashyosi yetishtirildi.² Shulardan kelib chiqib, nafaqat qimmatli xo'jalik belgilari uyg'unlashgan, balki tola sifati yuqori jahon talablariga javob beradigan navlarni yaratishda olimlar tomonidan olib boriladigan tadqiqotlar bugungi kunning dolzarbligini yo'qotmagan.

Dunyoning eng yirik paxta yetishtiruvchi Xitoy, Hindiston va AQSH kabi ko'plab davlatlarida turli xildagi duragay tizimlaridan foydalangan holda, g'o'za genofondidagi mavjud yovvoyi va madaniy turlarga mansub namunalarning donorlik xususiyatlarini aniqlash hamda yaratilgan turlararo duragaylarning genetik xususiyatlarini o'rganish orqali ulardan amaliy seleksiya jarayonida samarali foydalanish borasida ko'pgina ilmiy izlanishlar amalga oshirilmogda. Olib borilayotgan izlanishlar natijasida g'o'zaning genetik jihatdan boyitilgan tezpishar, hosildor, tola sifati va chiqimi yuqori bo'lgan duragaylari va navlari yaratilgan. Buning natijasida o'rta tolali g'o'zaning hosildor, ertapishar, tola sifati va chiqimining genetik imkoniyatlarini aniqlash, miqdoriy belgilarning poligenlar bilan nazorat qilinish ko'rsatkichlarini oshirish, turli genomli yovvoyi turlardan keng foydalanish natijasida yangi tizma va navlar yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda g'o'za seleksiyasida genomlararo duragaylash, eksperimental poliploidiya uslublarini qo'llash bo'yicha bir qator yutuqlarga erishildi. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar paxtachilikning genetik-seleksion sohalarini yuksaltirishda, madaniy va yovvoyi turlarni duragaylash asosida olingan tizma va navlar muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "mahalliy tuproq-iqlim va ekologik sharoitlariga moslashgan qishloq xo'jalik ekinlarining yangi seleksion navlarini yaratish va joriy etish"³ vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, g'o'za genofondi kolleksiyasida saqlanayotgan *Gossypium L.* turkumiga mansub diploid va tetraploid turlardan foydalanish, turli uslublarni qo'llagan holda biologik va qimmatli xo'jalik belgilarini tadqiq etgan holda introgressiv shakllarni amaliy seleksiya ishlariga jalb etish orqali o'rta tolali g'o'zaning yangi tizma va navlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ [Хлопок - статистика и факты | Статиста \(statista.com\)](https://www.statista.com)

² <https://www.agro.uz/11-045355/>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi" to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106-son "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 dekabrda «2020 yilda g'o'za navlarini joylashtirish va paxta xom ashyosi yetishtirishning prognoz hajmlari to'g'risidagi» 985-sonli qarori, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. *Gossypium* L. turkumiga mansub g'o'zaning turli genom guruhiga mansub yovvoyi va madaniy turlarni chatishtirish asosida olingan introgressiv tizmalarning populyatsiyasi ichidan turli biotiplarini ajratishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, AQSH qishloq xo'jaligi departamenti ilmiy tadqiqot markazlarida (USDA-ARS), Central Sotton Research Institute (Pokiston), Cotton Research Institute (Xitoy), Agricultural Research Institute, (Misr), Central Institute for Cotton Research (Hindiston), Central Cotton Research Institute, Multan (Pokiston), Central Cotton Research Institute, Sakrand (Pokiston), Australian Cotton Research Institute (Avstraliya), Cotton Research Institute (Turkiya), Hindiston qishloq xo'jaligi universitetida (New Delhi), Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari institutida, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Genomika va bioinformatika markazida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

G'o'zani genomlararo duragaylash orqali olingan introgressiv tizmalarini yaratishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: *Gossypium* L. turkumiga kiruvchi g'o'za turlarini belgi-xususiyatlarini madaniy navlarga o'tkazish natijasida rekombinant shakllar olingan (Chinese Academy of Agricultural Science, Xitoy), g'o'zaning diploid va tetraploid yovvoyi turlarini madaniy navlar ishtirokidagi turlararo duragaylarni sintez qilish va ularning genetik-seleksion tadqiqotlarda qo'llashning samarador usullari ishlab chiqilgan (Indian Central Institute for Cotton Research, Hindiston), g'o'zaning o'rta tolali introgressiv tizmalarning populyatsiya tarkibi, morfobiologik, qimmatli-xo'jalik va tolaning sifat belgilarini shakllanishi, uzviy bog'liqligi hamda klaster tahlili asosida o'rta tolali navlar olingan (Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, O'zbekiston), geografik uzoq va introgressiv shakllardan amaliy seleksiyada foydalanish natijasida hosildor, tola

chiqimi yuqori nav yaratilgan (Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari instituti, O'zbekiston).

Jahonda g'o'zaning genomlararo introgressiv tizmalarini yaratish va populyatsiyasidagi biotiplarini belgi-xususiyatlarini aniqlash bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: g'o'zaning introgressiv shakllar va tizmalarining populyatsiyasidagi biotiplarini morfo-xo'jalik va sifat belgilarining o'rtasidagi muvozanatlik darajasini aniqlash, genomlararo tizmalarni belgi-xususiyatlarning keng o'zgaruvchanligi va heterogenligiga erishish, yovvoyi, yarim yovvoyi tur va kenja turlar hisobiga madaniy navlar genotipini boyitish, morfobiologik va qimmatli xo'jalik belgilarining o'zaro korrelyativ bog'liqligi va klaster tahlilini baholash, morfo-xo'jalik va sifat belgilarining o'rtasidagi muvozanatlik aniqlash, amaliy seleksiyaning an'anaviy va noan'anaviy usullari asosida qimmatli-xo'jalik belgilari yangi navlarni yaratish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. G'o'za genomlararo tizmalarining populyatsiyasi ichidagi turli biotiplarini morfobiologik hamda xo'jalik belgilarini genetik imkoniyatini o'rganish g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bu boradagi ko'plab xorijiy D.R. DeJodie (1992), B.T. Campbell (2006), H. Benbouza (2010), K. Ashokkumar (2010), Y. Alkudsi (2013), K. Bayyapu Reddy (2015), Hafiz Saad Bin Mustafa (2015), D. Heilegiorgis (2011), K. Kumar (2017), Lokesh Kumar Meena (2017), Muhammad Abdullah (2016), M.B. Parmar (2015), Tulasi J.(2012), J.F. Wendel, (2000), Y. Chen (2014), B. Joshi (2023), J.P. Mithil (2016), T. Zhou (2022), Y. Tian (2023) olimlar tomonidan o'tkazilgan. Mamlakatimiz olimlaridan G. Arutyunova (1980), M.P. Pulatov (1981), A.A. Abdullayev (1995), S.M. Rizayeva (1996), X.Y. To'ychiyev (2010), Sh.E. Namazov (2014), S.A. Egamberdiyeva (2017), S.G'.Boboyev (2017), F.R. Abdiyev (2018), X.A. Mo'minov (2020), Sh.A. Samanov (2021) va boshqalar olimlarning izlanishlarini keltirish mumkin. Lekin, g'o'zaning introgressiv tizmalaridagi populyatsiya biotiplari ichida turli belgilarni ajratib, ularning irsiylanishi va bir-biri bilan o'zaro korrelyatsiyasi hozirga qadar o'rganilmagan.

Hozirgi vaqtda katta maydonlarga ishlab chiqarishga tavsiya etilgan g'o'za navlari soni miqdori yuqorili hamda, nav populyatsiyalarining dastlabki avlodlarida kuzatilgan turli morfobiologik va qimmatli xo'jalik belgilari keyingi avlodlarda to'liq saqlanib qolmasligi soha mutaxassislariga ma'lum. Natijada, g'o'za hosildorligi va tola sifatining keskin pasayishiga olib keladi. Seleksiyonerlar tomonidan yaratilgan navlarning populyatsiyalarini bir necha avlodlarda morfobiologik va qimmatli xo'jalik belgilarining muhimligini ta'minlash nav populyatsiyalari biotiplarida bu belgilarining genetik muvozanatligini to'liq tahlil qilinishini talab qiladi. Shu bilan birga g'o'zaning rayonlashtirilgan, istiqbolli navlari hamda tizmalarining morfobiologik va qimmatli xo'jalik belgilarini populyatsiya ichida biotiplar bo'yicha alohida guruhlariga ajratib o'rganish juda muhim hisoblanadi. Aytish joizki, turli genomli yovvoyi g'o'za turlarini duragaylash va eksperimental poliploidiya uslublaridan foydalangan holda introgressiv tizmalar olish, olingan shakllar asosida tizmalardagi

biotiplarning morfoxo'jalik belgilarining shakllanishi, korrelyativ bog'liqligi va klaster tahlilini baholash borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FA-A8-TO17 «G'o'za genofondining diploid va tetraploid turlariga oid dunyoviy xilmaxilliklari orasidan turli uslublar qo'llash asosida qimmatli namunalar ajratib olish, baholash, seleksiyaviy jarayonni jadallashtirish» (2015-2017 yy.), KA-8-009 “G'o'za genofondidan samarali foydalanish maqsadida uning milliy axborot tizimini yaratish” (2015-2017 yy.) mavzularidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi g'o'zaning introgressiv tizmalarining populyatsiyasidagi biotiplarini morfo-xo'jalik va sifat belgilari o'rtasidagi muvozanatlik darajasi, korrelyativ bog'liqligi hamda klaster tahlili asosida yangi navlar olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- genomlararo tizmalar chigitlarining unuvchanligini aniqlash;
- introgressiv tizmalarining morfobiologik va xo'jalik belgilarini aniqlash;
- introgressiv tizmalar populyatsiyasi tarkibidan biotiplar ajratib olish va guruhlariga (birinchi hosil shox joylashgan bo'g'in (hs), shoxlanish tipi, tola uzunligi va chiqimi, 1000 dona chigit vazni, tola chiqimi, tola indeksi...) bo'lish;
- ajratilgan biotiplarning morfobiologik va xo'jalik belgilarini tahlil qilish;
- biotiplar ichida kuzatilgan morfobiologik va xo'jalik belgilarni populyatsion tarkibini aniqlash;
- biotiplarning morfobiologik va xo'jalik belgilar o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion bog'liqligini aniqlash;
- biotiplardagi morfobiologik, xo'jalik va tolaning sifat belgilari bo'yicha o'zaro klaster tahlili asosida guruhlariga ajratish;
- introgressiv tizmalarining biotiplari ichidagi belgilarning fenotipik muvozanatlik darajasiga baho berish, nav darajasida barqarorlashtirish hamda yangi navlar yaratish;
- g'o'zaning yangi yaratilgan o'rta tolali navlarini respublikaning turli tuproq-iqlim sharoitida sinash va tavsifiya etish.

Tadqiqot obyekti sifatida g'o'zaning genomlararo introgressiv T-5/1, T-5/2, T-5/3, T-5 b/a, T-8/1, T-8/2, T-8 b/a, T-13/1, T-13/2, T-13/3, T-13 b/a, T-14/1, T-14/2, T-14/3, T-14/4, T-14 b/a, T-41/1, T-41/2, T-41 b/a, T-24/1, T-24/2, T-24 b/a T-142/1, T-142/2, T-142 b/a, T-138/1, T-138/2, T-138 b/a, T-141/1, T-141/2, T-141 b/a tizmalaridan hamda andoza nav sifatida g'o'zaning o'rta tolali S-6524 navi olingan.

Tadqiqot predmeti g'o'zaning introgressiv tizmalari populyatsiyasidagi biotiplarini chigit unuvchanligiga va hamda morfo-xo'jalik belgilarining o'zgaruvchanligi xo'jalik va sifat belgilarining korrelyativ bog'liqligi va klaster tahlillari hisoblanadi

Tadqiqot usullari. Ilmiy izlanishlar O'zPITIda qabul qilingan «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» (2007) bo'yicha olib borildi. Dissertatsiyada

g'o'za genetikasi va seleksiyasining klassik uslublari, qiyosiy morfologiya, fenologik kuzatuvlar, HVI apparatida tola sifati ko'rsatkichlari va genetikaseleksiya tahlillarining zamonaviy usullaridan foydalanilgan hamda chigit unuvchanligi ÖzDSt 1128-2006 asosida aniqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: ilk marotaba introgressiv tizmalarning geografik populatsiyasi tahlili asosida hosildor, ertapishar, tola chiqimi va sifati yuqori bo'lgan biotiplar ajratib olingan;

ilk marotaba genomlararo introgressiv tizmalarning geografik populatsiyasi tahlili asosida hosildor, ertapishar, tola chiqimi va sifati yuqori bo'lgan biotiplar ajratib olingan;

genomlararo introgressiv T-5, T-8, T-13, T-14, T-41, T-24, T-142, T-138, T-141 tizmalarining biotiplarini morfobiologik va qimmatli xo'jalik ko'rsatkichlari ko'p tarmoqli tahlil qilingan;

introgressiv tizmalar va ajratib olingan populyatsiyalardagi biotiplarda qimmatli xo'jalik va tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlarni tahlili natijasida 3 klaster guruhga ajralishi aniqlangan;

introgressiv tizmalardan ajratib olingan T-138/1, T-24/1 va T-142/1 biotiplarni ko'saklarning ochilish sur'ati andoza S-6524 naviga nisbatan 2-13 kunga (o'suv davri 108-110 kun) ertapisharligi hamda ushbu biotiplarning populyatsiya tarkibida tezpusharlik imkoniyatlari yuqori ekanligi aniqlangan;

genomlararo introgressiv T-138/1, T-24/1, T-142/1 tizmalarning morfo-xo'jalik xususiyatlarining potentsialigi barqarorlashtirilgan;

introgressiv tizmalarning geografik populatsiyasi tahlili asosida hosildor, ertapishar, tolasini uzun, tola chiqimi va sifati yuqori bo'lgan biotiplarni qiyosiy baholab yangi o'rta tolali «Genofond-3 (T-138/1)», «Shijoat (T-24/1)» va «Meros (T-142/1)» g'o'za navlari yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

G'o'zaning genomlararo tizmalarini populyatsiyasidagi biotiplarni qimmatli xo'jalik va sifat belgilarining shakllanishi o'rtasidagi muvozanatlik darajasi hamda korrelyativ bog'liqligi, klaster tahlili asosida ertapishar, hosildor, tola chiqimi va sifati yuqori bo'lgan genetik jihatdan boyitilgan ishlab chiqarish talablariga mos bo'lgan yangi o'rta tolali «Genofond-3», «Shijoat», «Meros», g'o'za navlari Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash markaziga taqdim etilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib borilgan tadqiqotlarning metodik jihatdan to'g'ri o'tkazilganligi, dala tajribalari aprobeksiya komissiyasi tomonidan yuqori baholanganligi, olingan natijalar nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalarining zamonaviy statistik tahlil qilinganligi, xulosalarning ilmiy va amaliy asoslanganligi, respublika, xalqaro anjumanlarda muhokamasi hamda mahalliy jurnallarda chop etilganligi, g'o'zaning yangi o'rta tolali «Genofond-3», «Shijoat», «Meros», navlari yaratilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati g'o'zaning introgressiv tizmalarining populyatsiya ichida biotiplar bo'yicha guruhlarga ajralishi hamda biotiplar bo'yicha guruhlash, chigitlarining

unuvchanligini aniqlash, fenotipik muvozanatlik darajasiga baho berish, nav darajasida barqarorlashtirish, morfobiologik, xo'jalik va tolaning sifat belgilarining klaster tahlili va korrelyativ munosabatlar ochib berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati genomlararo populyatsiyasidagi biotiplarini morfobiologik, qimmatli xo'jalik va sifat belgilarining shakllanishi, belgilarni muvozanatlik darajasi, korrelyativ bog'liqligi, klaster tahlili hamda turli tuproq-iqlim sharoitida sinash asosida ertapishar, hosildor, tola chiqimi va sifati yuqori bo'lgan yangi o'rta tolali «Genofond-3», «Shijoat», «Meros» navlar yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G'o'zaning genomlararo introgressiv tizmalarining populyatsiya ichida biotiplar bo'yicha qimmatli xo'jalik belgilarini baholash asosida nav olish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

g'o'zaning ko'p genomli turlari asosida tezpisharlik imkoniyatlari yuqori, ko'saklarning ochilish sur'ati andoza navga nisbatan 2-13 kunga tez bo'lgan T-138/1, T-24/1 va T-142/1 ntroggressiv tizmalari olingan va ulardan FA-F5-T024 «*Gossypium* L. turkumining polimorf turlarining turichi va turlararo bioxilmaxilliklarining filogenetik qarindoshlik darajasi» mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 31 oktabrdagi №4/255-2430-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, introgressiv nav va tizmalarning qimmatli xo'jalik belgilari va tolasining sifat ko'rsatkichlari yuqori, qurg'oqchilik va sho'rlanishga chidamli hamda zararkunandalardan oq pashsha, shira, o'rgimchakkanaga va vilt patogeniga bardoshlilik xususiyatiga ega bo'lgan boshlang'ich manbalar yaratish imkonini bergan;

g'o'zaning genomlararo introgressiv tizmalari «G'o'za genofondi» noyob obyektiga kiritilgan va genetika-seleksiya tadqiqotlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2024 yil 31 oktabr №4/1255-2429-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, introgressiv tizmalar g'o'za kolleksiyasi fondini boyitish, g'o'zaning yovvoyi turlarini baholash, stress omillarga moslasha oladigan va genetik jihatdan boyitilgan namunalar bo'yicha elektron bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan;

G'o'zaning yangi «Shijoat» va «Genofond-3» navlari Sirdaryo viloyati Boyavut tumanidagi «Xasanboy Xusanboy» fermer xo'jaligida «Shijoat» navi 15 ga, «Genofond-3» navi 18 ga, «Eliboyev Azizbek» fermer xo'jaligida «Shijoat» navi 20 ga, «Genofond-3» navi 21 ga, «Sardorbek Eldorbek Buyuk» ko'p tarmoqli fermer xo'jaligida «Shijoat» navi 23 ga, «Genofond-3» navi 28 ga maydonda joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 18 noyabrdagi №05/04-04-620-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, andoza navga nisbatan 5,0-10,0 s/ga yuqori qo'shimcha hosil olish imkonini bergan;

G'o'zaning yangi «Genofond-3», «Shijoat», navlari 2024 yilda institutning Zangiota ilmiy tajriba bazasida 1,0 gektar maydonda urug' ko'paytirish uchun joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 18 noyabrdagi №05/04-04-620-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, navlarning original

urug'lari tayyorlanib, rayonlashgan navlarga nisbatan 8,0-12,0 s/ga yuqori hosil olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta, jumladan 2 ta xorijiy, 5 ta mahalliy jurnallarda maqola, 1 ta monografiya nashr etilgan, 3 ta o'simlik naviga patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 191 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Диссертациянинг «**G'oz populatsiyasi uslublari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi yuzasidan respublikamiz va xorijda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi, jumladan *Gossypium* L. turkumiga mansub turli genomli g'oz turlarini amaliy seleksiyada foydalanish imkoniyatlari, morfobiologik va qimmatli xo'jalik belgilarning populyatsion tahlili, morfo-xo'jalik va sifat belgilarining o'rtasidagi muvozanatlik darajasi, korrelyativ bog'liqligi va o'simliklarda klaster tahlili bo'yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar batafsil tahlil qilingan.


Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o'tkazilgan joy va uning sharoiti, manbai va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarni o'tkazish sharoiti, boshlang'ich manbalari va uslublari keltirilgan bo'lib, unda izlanishlar Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti G'ozaning eksperimental poliploidiyasi va filogeniyasi laboratoriyasida bajarilganligi bayon etilgan.

Tadqiqotlarda g'ozaning *Gossypium* L. turkumiga mansub uch genomli Toshkent-1 x (*G.raimondii* x *G.thurberi*), Toshkent-1 x (*G.harknessii* x *G.raimondii*) (*G.hirsutum* subsp. *euhirsutum* «Kelajak» navi x *G.arboreum* subsp. *perenne* x *G.arboreum* subsp. *obtusifolium* var. *indicum*): duragay kombinatsiyalarining eksperimental poliploidiya uslubi asosida olingan tizmalar, ajratib olingan biotiplar va andoza S-6524 navidan foydalanilgan. G'ozaning genomlararo introgressiv tizmalari va biotiplarini morfobiologik, qimmatli xo'jalik hamda tolaning sifat belgilarning korrelyativ bog'liqligi hamda klasterli tahlil

usullaridan foydalanilgan. Ushbu tahlil ko'p o'lchamli statistikadan ma'lumki, obyektlarning bir-biridan uzoqligining tabiiy o'lchami Maxalanobis masofasi bilan hisoblanadi. Yevklid masofasi esa Maxalanobis masofasining xususiy holati bo'lib hisoblanadi. Ikkita x va y nuqtalar (belgilar) orasidagi Yevklid masofasining geometrik interpretatsiyasi: ikkita belgi bo'yicha olingan genotiplar (x_1, y_1 va x_2, y_2) orasidagi Yevklid masofasi ($d_{1,2}$) Pifagor teoremasi bilan aniqlangan.

Amaliy tadqiqotlardan olingan miqdoriy belgilarning raqamli ko'rsatkichlari B.A. Dospexov uslubida, introgressiv tizmalar va biotiplar belgilarini populyatsion asosda tahlil qilishda F.Ayala, Y.P.Altuxov va M.Kimuralarni uslublaridan foydalanildi hamda statistik ishlovdan o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar zamonaviy bir faktorli va ko'p faktorli dispersion ANOVA dasturidan va g'o'zaning qimmatli xo'jalik va tolaning sifat ko'rsatkichlari zamonaviy NCSS 2023, ORIGIN PRO 2021, PRISIM, va STATCRAPHSICS-18 dasturlarida tahlil qilindi. G'o'zaning introgressiv tizmalar va biotiplarini klaster guruhlariga ajratishda Statgraphics kompyuter dasturida genetik yaqinlikning o'lchovi sifatida Yevklid masofasidan, birlashtirish usuli sifatida esa Uord usulidan foydalangan holda aniqlandi.


Dissertatsiyaning «G'o'zaning introgressiv tizmalari populyatsiyasi biotiplarining morfo-biologik ko'rsatkichlari» deb nomlangan uchinchi bobida introgressiv tizmalarda chigit unuvchanligi, birinchi hosil shoxi joylashish balandligi, o'simlik bosh poya balandligi, hosil shoxlar soni ko'rsatkichlarining shakllanishi bo'yicha olingan natijalar tahlili keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda dala sharoitida chigit unuvchanligi belgisini shakllanishi korrelogrammasi, % (2020-2023 й.)

Ma'lumki, dunyo paxtachiligida yuqori hosil yetishtirishning muhim eng birinchi bosqichlaridan biri chigit unuvchanligi hisoblanadi. Chigit unuvchanligi eng muhim morfo-xo'jalik belgilaridan biri ekanidan kelib chiqqan holda g'o'zaning genomlararo duragaylarida fenologik kuzatuv ishlari davomida dala sharoitida chigit unuvchanligi har bir ajratib olingan tizmalar va biotiplarda to'liq

oʻrganildi. Tadqiqotlarimizda gʻoʻzaning birinchi hosil shoxi joylashgan boʻgʻin belgisi boʻyicha ajratib olingan biotiplarning 2020-2023 yillardagi natijalariga koʻra, qiyosiy tahlil qilinganda, ajratib olingan biotiplarda ushbu belgi boʻyicha koʻrsatkichlar T-138/1, birinchi hosil shoxi 5-6 boʻgʻinda, T-142/1, birinchi hosil shoxi 6-boʻgʻinda va T-24/1 biotiplarida, birinchi hosil shoxi 5-6 boʻgʻinda joylashganligi, andoza navdan ijobiy natijaga ega ekanligini qayd etdi. Qolgan biotiplarni 2020-2023 yillar davomida har bir belgining gomeostatik koʻrsatkichga ega biotiplarni nav narajasiga olib kelish uchun tadqiqot ishlarini davom ettirish kerak boʻladi (2-rasm).




2-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda birinchi hosil shoxi joylashgan boʻgʻin belgisining shakllanishi korrelogrammasi, hs (2020-2023 yy)

Olingan maʼlumotlarning tahlili tajribadagi gʻoʻza introgressiv tizmalar va biotiplarni populyatsiyalarida bosh poya balandligi belgisi boʻyicha bir necha biotiplardan iborat ekanligini koʻrsatdi. Demak, biotiplar ichida T-138/1, T-142/1, va T-24/1 biotiplarining bosh poyasi balandligi nisbatan bir xil boʻlganligi va ushbu belgi boʻyicha ijobiy farqlanishni aks ettirdi.

Dissertatsiyaning «Gʻoʻzaning introgressiv tizmalari populyatsiyasi biotiplarining xoʻjalik va sifat koʻrsatkichlarining shakllanishi» deb nomlangan toʻrtinchi bobida introgressiv tizmalarining qimmatli xoʻjalik belgilaridan oʻsuv davri, bir dona oʻsimlikdagi hosil, bir dona koʻsakdagi paxta


vazni, tola uzunligi, tola chiqimi, tola indeksi, 1000 dona chigit vazni, hosildorlik va tolaning sifat ko'rsatkichlarining natijalari keltirilgan. Ma'lumki, g'oz o'simligining tezpisharligi eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bu chigit unib chiqqan kundan to 50% ko'saklar ochilishigacha bo'lgan davri hisoblanadi. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda o'suv davri belgisi 2020-2023 yillarda natijalariga ko'ra qiyosiy tahlil qilinganda, tizmalarda bir biridan keskin farq qilishi kuzatildi. Andoza S-6524 navida yillar bo'yicha o'rtacha tezpisharligi 116-121 kuni tashkil etdi. O'suv davri belgi bo'yicha biotiplarda 2020-2023 yillar ma'lumotiga ko'ra o'rtacha tezpisharligi 109-116 kun bo'lganligi qayd etilib, andoza S-6524 navi 5-7 kun ertapishar ekanligi qayd etildi (3-rasm).



3-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda o'suv davri belgisining shakllanishi korrelogrammasi, kun (2020-2023 yy.)

Introgressiv tizmalarning populyatsiyalaridan ajratilgan biotiplarda bir tup o'simlikdagi hosil belgisi laboratoriya sharoitida tahlil qilindi. Andoza S-6524 navining bir tup o'simlikdagi hosil ko'rsatkichi o'rtacha 45,8 g teng bo'lib, variatsiya koeffitsiyenti 10,9 % oraliq'ida kuzatildi. 2020 yilgi natijalarga ko'ra T-8/1 biotipida, bir tup o'simlikdagi hosil 39,5 g, variatsiya koeffitsenti-6,2%, T-14/2 biotipida bir tup o'simlikdagi hosil 35,7 g, variatsiya koeffitsenti-14,1%, T-142/ biotiplar aralashmasida bir tup o'simlikdagi hosil 39,8 g, variatsiya koeffitsenti-8,3%, 2021 yilda T-5/2 biotipida bir tup o'simlikdagi hosil 39,8 g, variatsiya koeffitsenti 8,7%, T-5/3 biotipida bir tup o'simlikdagi hosil 37,9 g, variatsiya koeffitsenti-10,2%, T-142/2 biotipida bir tup o'simlikdagi hosil 39,4 g variatsiya koeffitsenti-6,9%, 2022 yilda T-13/biotiplar aralashmasida bir tup o'simlikdagi hosil 39,8 g, variatsiya koeffitsenti-6,2%, T-14/1 biotipida bir tup o'simlikdagi hosil 37,9 g, variatsiya koeffitsenti-10,0%, T-5/3 biotipida bir tup o'simlikdagi hosil 39,4 g variatsiya koeffitsenti-8,1%, T-141/ biotiplar aralashmasida bir tup


o‘simlikdagi hosil 39,2 g, variatsiya koeffitsenti -8,7%, 2023 yilda T-8/ biotiplar aralashmasida bir tup o‘simlikdagi hosil 39,5 g, variatsiya koeffitsenti-6,2%, T-14/4 biotipida bir tup o‘simlikdagi hosil 39,7 g, variatsiya koeffitsenti-14,8%, T-141/2 biotipida bir tup o‘simlikdagi hosil 39,9 gr, variatsiya koeffitsenti-8,1%ni tashkil etib andozadan 4,7-10,1 grammgacha bir tup o‘simlikdagi hosil kam ekanligi qolgan biotiplarda bir tup o‘simlikdagi hosil deyarli bir xil ekanligini kuzatildi (4-rasm).



4-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda bir tup o‘simlikdagi hosil belgisining shakllanishi korrelogrammasi, g (2020-2023 yy.)


G‘o‘zaning eng muhim xo‘jalik belgilaridan biri bo‘lgan bir dona ko‘sakdagi paxta vazni bo‘yicha introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplar yuqori ko‘rsatkichlarga ega ekanligi, bu esa andoza navdan sezilarli ravishda ustunligini ko‘rsatib, kelajakda ulardan o‘rta tolali yirik ko‘sakli navlar yaratishda foydalanish yaxshi samara berdi va ishlab chiqarishga joriy etish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligi isbotlandi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yirik ko‘sakli T-138/1 biotipida, bir dona ko‘sakdagi paxta vazni 6,5-6,7 g, T-142/1 biotipida, bir dona ko‘sakdagi paxta vazni 6,4-6,6 g hamda T-24/1 biotipida, bir dona ko‘sakdagi paxta vazni 6,6-6,7 grammni tashkil etib ushbu tizmalarni amaliy seleksiya jarayonida boshlang‘ich ashyo sifatida tavsiya etiladi. Tadqiqot uchun tanlangan g‘o‘za biotiplarining qimmatli xo‘jalik belgilaridan biri bo‘lgan bitta ko‘sakdagi paxta vazni belgisi 2020-2023 yil natijalariga ko‘ra qiyosiy tahlil qilinganda, ba’zi biotiplarda bir biridan keskin farq qilishi kuzatilmadi. Bir dona

ko'sakdagi paxta vazni belgisi andoza S-6524 navida yillar bo'yicha o'rtacha bir dona ko'sakdagi paxta vazni 5,9-6,5 grammni tashkil etgan (5-rasm).




5-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda bir dona ko'sakdagi paxta vazni belgisining shakllanishi korrelogrammasi, g (2020-2023 yy.)

G'o'zaning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan tola uzunligi belgisi 2020-2023 yil ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinganda, ushbu belgi bo'yicha biotiplarda bir-biriga yaqin natijalar qayd etildi. Tola uzunligi belgisi bo'yicha biotiplarda o'rtacha tola uzunligi 33,6-35,9 mm oralig'ida kuzatilib, andoza S-6524 naviga nisbatan 0,5-2,8 mm, yuqori ko'rsatkichni namoyon etdi. Ushbu belgi bo'yicha o'rtacha 33,3-34,6 mm, tashkil etdi. O'rganilgan tola uzunligi belgi bo'yicha yuqori ko'rsatkich T-8/1 biotipida, tola uzunligi 34,2 mm, variatsiya koeffitsenti-3,72%, T-138/1 biotipida, tola uzunligi 34,0 mm, variatsiya koeffitsenti-2,01%, T-138/2 biotipida, tola uzunligi 35,0 mm, variatsiya koeffitsenti-2,02%, T-24/1 tola uzunligi 34,6 mm, variatsiya koeffitsenti-1,99% qayd etdi. Ushbu biotiplarda tola uzunligi belgi bo'yicha yuqori ko'rsatkich T-13/2 biotipida, tola uzunligi 34,2 mm, variatsiya koeffitsenti-5,78%, T-14/2 biotipida, tola uzunligi 34,5 mm, variatsiya koeffitsenti-3,44%, T-14/4 tola uzunligi 34,2 mm, variatsiya koeffitsenti-6,25%, T-138/1 biotipida, tola uzunligi 34,0 mm, variatsiya koeffitsenti-1,51%, T-141/ biotiplar aralashmasida tola uzunligi o'rtacha 36,6 mm, variatsiya koeffitsenti-8,81%, T-24/1 biotipida tola uzunligi 34,6 mm, variatsiya koeffitsenti-1,45% ni qayd etib va ushbu belgi bo'yicha nisbatan andozadan tola uzunligi +2,1 mm, uzun ko'rsatkichni qayd etdi. Qolgan biotiplarda tola uzunligi belgisi bo'yicha deyarli bir-biriga yaqin ko'rsatkichlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin (6-rasm).



6-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda tola uzunligi belgisining shakllanishi korrelogrammasi, mm (2020-2023 yy.)

Tola chiqimi eng muhim qimmatli-xo'jalik belgilaridan biri ekanidan kelib chiqqan holda g'o'zaning genomlararo duragaylarida tola chiqimi belgisining irsiylanishi o'rganildi. Tadqiqotlarimizda g'o'zaning introgressiv tizmalaridan ajratib olingan 31 ta biotiplar va andoza S-6524 navi tahlil qilindi. Ushbu belgi bo'yicha yuqori ko'rsatkich T-41/ biotiplar aralashmasida tola chiqimi-43,0%, variatsiya koeffitsenti-0,61%, T-138/1 tola chiqimi-42,5%, variatsiya koeffitsenti-4,53%, T-141/1 biotipida, tola chiqimi-41,5%, variatsiya koeffitsenti-5,19%, T-141/2 biotipida, tola chiqimi-43,8%, variatsiya koeffitsenti-3,09%, T-142/1 biotipida, tola chiqimi-43,1%, variatsiya koeffitsenti-1,56%, T-142/2 biotipida, tola chiqimi-40,1%, variatsiya koeffitsenti-3,90%, T-142/1 biotipida, tola chiqimi-45,4%, variatsiya koeffitsenti-1,56%, T-142/ biotiplar aralashmasida tola chiqimi esa 40,1% variatsiya koeffitsenti-2,92% va T-24/1 biotipida, o'rtacha 41,2 % tashkil etgan bo'lsa, variatsiya koeffitsiyenti esa 3,83 % ni tashkil etib, andoza navdan +6,4% gacha tola chiqimi yuqori ko'rsatkichni namoyon etdi. O'rganilgan barcha introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarining tola chiqimi belgisi yuqoriligi bilan ajralib turdi va shuni inobatga olgan holda T-138/1, T-24/1 va T-142/1 biotiplarini amaliy seleksiya jarayonida noyob boshlang'ich manba sifatida tavsiya etiladi (7-rasm).




7-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda tola chiqimi belgisining shakllanishi korrelogrammasi, % (2020-2023 yy.)

Tadqiqot uchun tanlab olingan g'ozaning introgressiv tizmalaridan populyatsion tahlillar asosida ajratib olingan biotiplarning yana bir eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan tola indeks belgisi hisoblanadi. Ushbu belgining 2020-2023 yillar ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinganda, tola indeksi belgisi bo'yicha biotiplarda bir-biriga yaqin natijalar qayd etildi.

Tola indeksi belgisi bo'yicha tizmalarda 2020-2023 yillar kesimida o'rtacha 6,3-10,2 g qayd etildi va andoza S-6524 navida 6,3-8,2 g ko'rsatkichni namoyon etdi. Olib borilgan tajribalarimizning to'rt yillik natijalariga ko'ra tola indeksi ko'rsatkichlarini tahlili shuni ko'rsatdiki introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarning tola indeksi 2020-2023 yillar miqyosida ijobiy holatdaligini, introgressiv tizmalardagi biotiplar aralashmasida esa ushbu belgi bo'yicha tarqoq xolatdaligi yani barqaror emasligi ma'lum bo'ldi. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarining tola indeksi belgisi bilan T-138/1, T-142/1 va T-24/1 biotiplarida barqaror holatda bo'lib, ya'ni nav darajasida takomillashganligi bilan ajralib turdi (8-rasm).


Tadqiqot uchun tanlangan ko'p genomli introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarni qimmatli xo'jalik belgilaridan biri bo'lgan 1000 dona chigit vazni belgisi 2020-2023 yillar natijalariga ko'ra, biotiplarda to'rt yillik ma'lumotlar bo'yicha bir-biridan keskin farq qilishi kuzatildi. O'rganilgan tizmalarda 1000 dona chigit vazni belgisi andoza S-6524 navida yillar bo'yicha o'rtacha 116,7-120,0 grammni, shunga mos ravishda variatsiya koeffitsenti esa 2,5-3,6% ni tashkil etdi.



8-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda tola indeksi belgisining shakllanishi (2020-2023 йй.)

Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda 2020 yilgi natijalarga ko‘ra ushbu belgi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich T-14/3 biotipida 135,3 g, T-14/4 biotipida 1000 dona chigit vazni, 128,4 g, 2021 yilda T-8/1 biotiplar aralashmasida, 1000 dona chigit vazni, 120,3 g, T-14/3 biotipida 1000 dona chigit vazni 126,0 g, T-14/4 biotipida, 1000 dona chigit vazni, 120,0 grammni, 2022 yilda T-5/3 biotipida, 1000 dona chigit vazni 120,0 g, T-13/ biotiplar aralashmasida, 1000 dona chigit vazni 121,0 g, T-14/3 biotipida, 1000 dona chigit vazni, 123,0 g, T-14/ biotiplar aralashmasida, 1000 dona chigit vazni 20,0 g, T-41/ biotiplar aralashmasida, 1000 dona chigit vazni 120,0 grammni, 2023 yilda T-14/ biotipida, 1000 dona chigit vazni, 124,0 g, T-14/ biotiplar aralashmasida, 1000 dona chigit vazni, 122,0 g, T-41/ biotiplar aralashmasida, 1000 dona chigit vazni, 124,0 grammni tashkil etib 2020-2023 yillar natijalariga ko‘ra andoza S-6524 navidan 1000 dona chigit vazni, 3,3-15,3 grammgacha ushbu belgi bo‘yicha yuqori ekanligini qayd etdi.

Lekin tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarni 1000 dona chigit vazni belgisi bo‘yicha faqatgina T-24/1 biotipida 108,0-110,0 g, T-138/1 biotipida 108,0-110,0 gr, T-142/1 biotipida 106,0-109,0 gr ekanligi va ushbu belgi barqarorlashganligini ko‘rsatdi (9-rasm).




9-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda 1000 don chigit vazni belgisining shakllanishi (2020-2023 yy.)

Paxta tolasining sifat ko'rsatkichlari zamonaviy HVI uskunasi yordamida tahlildan o'tkaziladi. Shundan kelib chiqqan holda, tadqiqotlarimizda turli genomli turlar asosida yaratilgan introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarni sifat ko'rsatkichlari Respublika «Sifat» markazida HVI uskunasi yordamida aniqlandi hamda tolaning ayrim sifat ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlar rayonlashgan S-6524 navini tolasini bilan qiyosiy tahlil qilindi (4.9-rasm).

Ma'lumki, tolaning eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan mikroneyr (mic)-paxta tolasini namunasining havo o'tkazuvchanligiga qarab tolaning ingichkaligi va pishib yetilganligini bildiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, mikroneyr ko'rsatkichi agrotexnik tabdirlarga bog'liq tarzda yillar bilan qiyosiy o'rganilganda o'zgarishlar bo'lishi mumkin.


Xalqaro tasniflarda mikroneyr ko'rsatkichi quyidagi mezonlar bo'yicha tahlil qilinadi, ya'ni 3,7-4,2 intervali «mukofotli oraliq», 3,5-3,6 mic va 4,3-4,9 mic intervallari «asosiy oraliq», agar 3,4 micdan kam va 5,0 mic dan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa, «narxidan chegiriladigan» deb ko'plab adabiyotlarda aytilgan.

Ushbu belgi bo'yicha ijobiy ko'rsatkich ya'ni «mukofotli oraliq», da T-138/1 biotipida 4,1 mic, T-142/1 biotipida 4,1 mic, T-142/1 biotipida 4,1 mic, T-138/2 biotipida 4,2 mic, T-8/2 biotipida 4,2 mic, hamda «asosiy oraliq» da ekanligini qayd etdi (10-rasm).



10-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda tolaning sifat ko'rsatkichlari belgisining shakllanishi («Sifat» markazi 2020-2023 yillardagi ma'lumotlarning o'rtachasi).

T-5/1 biotipida 4,6 mic, T-5/2 biotipida 4,3 mic, T-5/3 biotipida 4,4 mic, T-13/2 biotipida 4,5 mic, T-13/ biotiplar aralashmasida 4,7 mic, T-13/3 biotipida 4,8 mic, T-14/1 biotipida 4,8 mic, T-14/4 biotipida 4,9 mic, T-41/1 biotipida 4,7 mic, T-41/2 biotipida 4,8 mic, T-41/ biotiplar aralashmasida 4,9 mic, T-138/ biotiplar aralashmasida 4,7 mic, T-141/ biotiplar aralashmasida 4,3 mic, T-142/2 biotipida 4,3 mic, T-142/ biotiplar aralashmasida 4,5 mic, T-142/biotiplar aralashmasida 4,5 mic, T-24/2 biotipida 4,3 mic va T-24/ biotiplar aralashmasida biotipida 4,3 mic ekanligi, bu «asosiy oraliq» mezonlariga to'g'ri kelishi aniqlandi. Paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichi 31 ta biotipning 6 tasida mikroneyr ko'rsatkichi 5,0-5,7 mic oralig'ida joylashib, bu o'rganilgan umumiy tizmalarning 20,0 % ni tashkil etadi. Tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlaridan mikroneyri bo'yicha tahlil qilingan faqatgina ushbu T-138/1 biotipida 4,1 mic, T-24/1 biotipida 4,1 mic, T-142/1 biotipida 4,1 mic, T-138/2 biotipida 4,2 mic, T-8/2 biotipida 4,2 mic, T-138 biotiplarning mikroneyr ko'rsatkichi ijobiy bo'lgan bo'lsa, bu esa andoza S-6524 navidan (-0,4 mic) yaxshi natija ekanligi aniqlandi. Turli genomli tizmalarda tolaning sifat belgilaridan biri bo'lgan mikroneyr ko'rsatkichi 3,4 mic dan kam va 5,0 mic dan yuqori ko'rsatkichga ega, ya'ni «narxidan chegiriladigan» mezonlarga mos keluvchi 6 ta biotiplarda qayd etildi (11-rasm).



11-rasm. Introgressiv tizmalardan ajratib olingan biotiplarda morfo-xo‘jalik belgilarni (chigit unuvchanligi, bir tup o‘simlikdagi hosil, o‘simlik bo‘yi, birinchi hosil joylashgan bo‘g‘in, hosil shoxlar soni (s), hosildorlik, tezpisharlik) klaster guruhlariga ajralish dendrogrammasi

